

Birinch, uslubiy qo'llanmalar yaratish maqsadida fizika fanini Cambridge Global Perspectives asosida o'qitish uchun global muammolarni tahlil qilishga imkon beradigan turli xil topshiriqlar, keyslar va loyiha ishlanmalarini qamrab olgan uslubiy to'plamlar ishlab chiqish zarur;

Ikkinchi, fanlararo o'zaro integratsiyani kuchaytirish maqsadida fizika faniga oid mavzularni geografiya, biologiya, iqtisodiyot kabi fanlar bilan o'zaro integratsiya qilib o'qitish orqali o'quvchilarda ko'pqirrali tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirish zarur;

Uchinchi, tanqidiy va ijtimoiy jihatdan fikrlashni faollashtirish maqsadida turli xil munozaralar, loyiha ishlari, simulyatsiya mashg'ulotlarini tashkil etishga oid ilg'or usullarni dars jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiq;

To'rtinchi, baholash tizimini takomillashtirish maqsadida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan me'zonlar sifatida tanqidiy va ijodiy tahlil qilish, induksiya va deduksiya metodlari yordamida ijodiy yechimlar taklif qilish, ongli yondashuvlar asosida ijtimoiy anglashga qaratilgan mezonlardan foydalangan holda o'quvchilar faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish lozim;

Beshinchidan, o'qituvchilar malakasini oshirish maqsadida Cambridge Global Perspectives konsepsiyasiga oid talablar, qoidalar, g'oyalarni zamonaviy usullarda amaliyotga joriy etish, fanlararo integratsiyalash bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish lozim;

Oltinchidan, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellektga asoslangan interfaol vositalardan foydalanish orqali laboratoriya ishlari, simulyatsiya mashg'ulotlari, multimedia resurslaridan amalda keng foydalanish orqali fizika darslarini o'qitishni hayotiy vaziyatlarni muhokama qilish, hal qilish va boshqa jarayonlariga yaqinlashtirish maqsadga muvofiq.

Bu borada Cambridge Global Perspectives konsepsiyasini AQSh, Kanada, Germaniya, Finlyandiya, Janubiy Koreya va Singapur kabi rivojlangan davlatlar mavjud bo'lgan tajribalarni respublikamizdagi ta'lim jarayoniga zaruriyatga ko'ra joriy etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu tariqa, ushbu yo'nalishdagi tadqiqot ishlari hamda amalga oshirilayotgan amaliy ishlari ta'limning global talablariga javob beradigan intellektual jihatdan har tomonlama rivojlangan o'quvchilarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Cambridge Assessment International Education. Cambridge Global Perspectives: Developing learners' global outlook and competencies. – Cambridge: «Cambridge University Press & Assessment», 2023..
2. Cambridge Assessment International Education. Cambridge International AS & A Level Global Perspectives & Research: Syllabus overview – Cambridge: «Cambridge University Press & Assessment», 2024.
3. National Academy of Engineering; National Research Council. STEM Integration in K-12 Education: Status, Prospects, and an Agenda for Research. – Washington, DC: The National Academies Press, 2014.
4. Drew, Chris. What is Finland's Phenomenon-based Learning approach? // Teacher Magazine.
5. Hobbs, Renee. Global Perspectives: Developing Media Literacy Skills to Advance Critical Thinking. // School Library Media Research. 2007. Vol. 10.
6. Кашапов М.М. Психология творческого мышления: учебное пособие. – Москва: «ИНФРА-М», 2017.
7. Богословский В.И. и др. Общая психология: учебник для академического бакалавриата. / В.И.Богословский, С.В.Кондратьев, В.А.Сластенин; под ред. В.И.Богословского. 2-е изд., испр. и доп. – Москва: «Юрайт», 2018.

REZYUME. Maqolada o'quvchilarning intellektual salohiyatini global muammolar tahlili orqali rivojlantirish masalasi pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqiladi. Cambridge Global Perspectives konsepsiyasi asosida fizika ta'limida tanqidiy fikrlash, axborot tahlili va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi hamda xalqaro va milliy tajribalar tahlil etiladi.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается проблема развития интеллектуального потенциала учащихся через анализ глобальных проблем как педагогическая задача. На основе концепции Cambridge Global Perspectives раскрываются теоретические и практические основы формирования критического мышления, анализа информации и гражданской позиции в обучении физике, а также анализируется международный и национальный опыт.

SUMMARY. The article addresses the issue of developing students' intellectual potential through the analysis of global problems as a pedagogical challenge. Based on the Cambridge Global Perspectives concept, it outlines the theoretical and practical foundations for fostering critical thinking, information analysis, and civic engagement in physics education, as well as examines international and national experiences.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI

O.Kurbanbayeva – *tayanch doktorant*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: pedagogik kompetentlik, bo'lajak o'qituvchilar, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik mahorat, ta'lim sifati, rivojlantirish modeli, o'qituvchilar tayyorlash tizimi.

Ключевые слова: педагогическая компетентность, будущие учителя, компетентностный подход, профессиональная подготовка, педагогическое мастерство, качество образования, модель развития, система подготовки учителей.

Key words: pedagogical competence, future teachers, competency-based approach, professional training, pedagogical mastery, quality of education, development model, teacher training system.

Kirish. Zamonaviy jamiyatning jadal rivojlanishi va globallashtirish jarayonlari ta'lim tizimiga va o'qituvchilik kasbiga bo'lgan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi

kunda o'qituvchi nafaqat bilim va ko'nikmalarni uzatuvchi, balki ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrlaydigan, innovatsion texnologiyalarni qo'llay oladigan, zamonaviy axborot mu-

hitida samarali faoliyat ko'rsata oladigan mutaxassis bo'lishi kerak. Ushbu talablar bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish masalasini dolzarb qiladi. Ta'lim sohasidagi islohotlar jarayonida o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga yangicha yondashuv shakllanmoqda – bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni egallatish paradigmasidan kompetentsiyaviy yondashuvga o'tish kuzatilmoqda. Bu esa pedagogik kompetentlik tushunchasini chuqurroq o'rganish va uni rivojlantirish yo'llarini aniqlash zaruratini keltirib chiqaradi.

“Kompetentlik” tushunchasi lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, “competentia” - muvofiqlashtirilgan harakat qilish qobiliyati, masalalarni hal qilish uchun bilim va tajribaga ega bo'lish, ma'lum bir sohada vakolatli bo'lish ma'nolarini anglatadi. Pedagogik kompetentlik - o'qituvchining kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar tizimini o'z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pedagogik kompetentlik tushunchasi bo'yicha ko'plab tadqiqotchilar o'z yondashuvlarini taklif etganlar. Masalan, N.V.Kuzmina pedagogik kompetentlikni besh tarkibiy qismga ajratadi: maxsus va kasbiy kompetentlik o'qitilayotgan fan sohasida; metodik kompetentlik o'qitish usullari sohasida; ijtimoiy-psixologik kompetentlik pedagogik muloqot sohasida; differentsial-psixologik kompetentlik o'quvchilarning motivlari va qobiliyatlari sohasida; autopsixologik kompetentlik o'z faoliyati va shaxsiyatining ijobiy va salbiy tomonlarini anglash sohasida [1].

V.A.Slastenin pedagogik kompetentlikni o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatleri birligida ko'radi va uni quyidagi komponentlarga ajratadi: qadryatli yo'nalishlar, pedagogik ijod uchun zarur bo'lgan shaxsiy sifatlar, kasbiy bilimlar tizimi va pedagogik texnologiyalarni egallash [2].

A.K.Markova pedagogik kompetentlikni maxsus, ijtimoiy, shaxsiy va individual turlarga ajratib o'rganadi [3]. Maxsus kompetentlik kasbiy faoliyatni yuqori darajada egallashni va keyingi kasbiy rivojlanishni rejalashtirish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy kompetentlik hamkorlikdagi kasbiy faoliyat usullarini va kasbiy hamkorlik qoidalarini egallashni nazarda tutadi. Shaxsiy kompetentlik o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini namoyon qilish usullarini egallashni, kasbiy deformatsiyalarga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Individual kompetentlik o'z-o'zini tartibga solish usullarini, kasbiy o'sishga tayyorlikni, kasbiy qarashi va kasbiy deformatsiyalarga qarshi turishni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy tadqiqotchilar I.A.Zimnyaya, A.V.Xutorskoy, Yu.G.Tatur va boshqalar kompetentlik tushunchasini kompetentsiya tushunchasi bilan bog'liq holda ko'rib chiqadilar. Kompetentsiya – bu shaxs egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui, kompetentlik esa bu kompetentsiyalarning amaliy faoliyatda samarali qo'llanilishi natijasida shakllanadigan shaxsiy sifattir [4].

O'zbek olimlaridan A.A.Abduqodirov, N.S.Sayidaxmedov, R.X.Djurayev, U.N.Nishonaliyev, O.D.Raximov, B.R.Adizov, N.A.Muslimov kabilar pedagogik kompetentlik masalalarini o'z tadqiqotlarida ko'rib chiqqanlar. Ularning ishlarida pedagogik kompetentlik tushunchasi o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasi, pedagogik mahorat va pedagogik madaniyat tushunchalari bilan bog'liq holda o'rganilgan [5, 6].

N.A.Muslimov o'z tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosini yoritib, kasbiy kompetentlikni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqqan. Olim kasbiy kompetentlikni integrativ tavsifga ega bo'lgan kasbiy faoliyatning yuqori darajasi, deb ta'riflaydi [7].

Muhokama va natijalar. Zamonaviy tadqiqotchilarning aksariyati pedagogik kompetentlikni dinamik hodisa sifatida ko'rib chiqadilar va uni quyidagi asosiy komponentlarga ajratadilar:

1. *Kognitiv (bilish) komponenti* – bu o'qituvchining chuqur nazariy bilimi, pedagogik jarayonning qonuniyatlarini tushunishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni bilishi, o'z fanini chuqur bilishi.

2. *Faoliyatli-amaliy komponenti* – o'qituvchining o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyati, o'quv jarayonini loyihalash va tashkil etish ko'nikmalari, pedagogik vazifalarni hal qilish usullarini egallash.

3. *Kommunikativ komponenti* – o'qituvchining o'quvchilar, hamkasblar, ota-onalar va boshqa ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan samarali muloqot qilish, hamkorlik qilish qobiliyati.

4. *Refleksiv komponenti* – o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish, o'zini o'zi baholash, o'z kamchiliklarini ko'ra bilish va o'z ustida ishlash qobiliyati.

5. *Motivatsion-qadryatli komponenti* – o'qituvchining kasbiy qiziqishi, pedagogik faoliyatga qadryatli munosabati, o'z kasbini sevishi va unga sodiq bo'lishi.

6. *Shaxsiy komponenti* – o'qituvchining pedagogik faoliyat uchun zarur bo'lgan shaxsiy sifatleri: mas'uliyatlilik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, empatiya, tolerantlik.

7. *Texnologik komponenti* – zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, raqamli ta'lim resurslarini yaratish va foydalanish qobiliyati.

Yuqorida keltirilgan komponentlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning birligi o'qituvchining yaxlit pedagogik kompetentligini tashkil etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish borasidagi xorijiy tadqiqotlar tahlili. Xorijiy mamlakatlarda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish masalasi keng qamrovli o'rganilgan. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

AQSH va Kanadada olib borilgan tadqiqotlarda “o'qituvchi standarti” (teacher standards) va “o'qituvchi sifati” (teacher quality) tushunchalari keng qo'llaniladi. L.Darling-Hammond, L.Shulman, D.Berliner kabi olimlarning ishlarida o'qituvchi kompetentligining asosiy tarkibiy qismlari sifatida quyidagilar ajratiladi: fanni chuqur bilish (subject knowledge), pedagogik mazmunni bilish (pedagogical content knowledge), o'qitish metodlarini bilish va qo'llash qobiliyati, o'quvchilarning rivojlanish xususiyatlarini bilish, ta'lim jarayonini loyihalash va baholash qobiliyati [8]. AQSH olimi L.Shulman “pedagogik mazmunni bilish” (pedagogical content knowledge, PCK) tushunchasini kiritib, uni o'qituvchining o'z fanini o'qitish usullarini bilishi, ya'ni fan mazmunini o'quvchilarga tushunarli qilib yetkazish qobiliyati sifatida ta'riflagan. Bu tushuncha hozirgi kunda ko'plab tadqiqotchilar tomonidan rivojlantirilmoqda. Kanadalik olim M.Fullan o'qituvchilarning kompetentligini rivojlantirishda ta'lim muhitining o'rni, o'qituvchilarning jamoa bo'lib ishlashi va doimiy kasbiy rivojlanishi muhimligini ta'kidlaydi.

O'zbek olimlarining tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirishning quyidagi yo'nalishlari alohida ajratiladi:

1. Kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish
2. Metodik kompetentlikni rivojlantirish
3. Axborot-kommunikatsiya kompetentligini rivojlantirish
4. Kreativ kompetentlikni rivojlantirish
5. Tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish
6. Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish
7. Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb muammolaridan biridir. O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik kompetentlik murakkab, ko'p qirrali va dinamik hodisa bo'lib, u kognitiv, faoliyatli-amaliy, kommunikativ, refleksiv, motivatsion-qadriyatli, shaxsiy va texnologik komponentlarni o'z ichiga oladi.

Jahon miqyosida va O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning turli modellarini (bosqichli-darajali, integrativ, modulli) va samarali metodlarini (loyiha, keys-stadi, portfolio, pedagogik treninglar, mikroo'qitish, refleksiv texnologiyalar) aniqlashga imkon berdi.

Zamonaviy sharoitlarda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. O'qituvchilar tayyorlash dasturlarini kompetentsiya-yiy yondashuv asosida takomillashtirish;
2. Nazariy tayyorgarlik va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning optimal nisbatini ta'minlash;
3. Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanish;
4. Bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatini kuchaytirish;
5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli ta'lim resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash;
6. Bo'lajak o'qituvchilarning tadqiqotchilik kompetentsiyasini rivojlantirish;
7. Ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish;
8. Pedagogik amaliyotni takomillashtirish;
9. Bo'lajak o'qituvchilarning xorijiy tillarni o'rganishi va xalqaro tajribani o'zlashtirishini qo'llab-quvvatlash;
10. Uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini yaratish.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish orqali ta'lim sifatini oshirish, innovatsion ta'lim muhitini yaratish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyati paydo bo'ladi, bu esa pirovard natijada jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

Adabiyotlar

1. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. – Москва: «Высшая школа», 1990.
2. Сластенин В.А. Педагогика: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – Москва: «Академия», 2018.
3. Маркова А.К. Психология профессионализма. – Москва: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996.
4. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования. // Высшее образование сегодня. № 5, 2003. – С. 34-42.
5. Абдукодилов А.А., Пардаев А.Х. Таълим жараёнини технологиялаштириш назарияси ва методологияси. – Тошкент: «Фан ва технология», 2012.
6. Джурбаев Р.Х. Ўзбекистонда узлуksиз таълим тизимини ривожлантиришнинг методологик асослари. – Тошкент: «Фан», 2017.
7. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантириш назарияси ва амалиёти. Пед. фан. док. дисс... – Тошкент: 2007.
8. Darling-Hammond L., Bransford J. Preparing Teachers for a Changing World: What Teachers Should Learn and Be Able to Do. – San Francisco: «Jossey-Bass», 2015.

РЕЗЮМЕ. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish masalasi bo'yicha zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tahlili keltirilgan. Pedagogik kompetentlik tushunchasi, uning komponentlari va shakllanish bosqichlari ko'rib chiqilgan. Zamonaviy ta'lim paradigmasi doirasida kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuvning dolzarbligi asoslangan. Jahon miqyosida va O'zbekistonda o'tkazilgan tadqiqotlarning qiyosiy tahlili o'tkazilgan. Tadqiqot natijasida o'qituvchilar tayyorlash tizimida pedagogik kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье представлен анализ современных научных исследований по вопросу развития педагогической компетентности будущих учителей. Рассмотрено понятие педагогической компетентности, ее компоненты и этапы формирования. Обоснована актуальность компетентностно-ориентированного подхода в рамках современной образовательной парадигмы. Проведен сравнительный анализ исследований, проведенных в мировом масштабе и в Узбекистане. В результате исследования разработаны рекомендации по развитию педагогической компетентности в системе подготовки учителей.

SUMMARY. The article presents an analysis of contemporary scientific research on the development of future teachers' pedagogical competence. The concept of pedagogical competence, its components, and stages of formation are examined. The relevance of a competency-based approach within the framework of the modern educational paradigm is substantiated. A comparative analysis of research conducted on a global scale and in Uzbekistan has been conducted. As a result of the research, recommendations were developed for the development of pedagogical competence in the teacher training system.